

## **BOSHLANGICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA INTEGRATSIYON TA'LIM**

*Ismanova Gulnara. G.*

*ADU katta o'qituvchisi,*

*Qosimova Shaxzodaxon*

*ADU boshlang'ich ta'lism yo'nalishi talabasi*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematikasida integratsiyon ta'lism shakillari yoritilgan. Hozirgi paytda zamonaviy maktablarda integratsion ta'lismni o'qitishning dolzarb muammolari, maktab o'quvchilarining bilimini faollashtirish bilan bog'liq katta tajribani ko'rib chiqishga borib taqaladi. Maqolada boshlangich sinflar uchun matematika darsi chuqurlashtirilgan holda bayon etilgan.

### **Аннотация**

В данной статье говорится об интеграционном обучении по математике в начальных классах.

В настящее время необходимо ознакомиться с большим опытом работы, касающимся интеграционного обучения в современной школе, актуальных проблем обучения, активации знаний учащихся.

В данной статье дано разёрнутое, углублённое объяснение урока по математике в начальных классах.

### **Annotation:**

In that article talk about of intergration education in elementary school of mathematics.

In our time it is necessary know plenty of expriense work in phase of integration study in the modern of school, ordinariile issue revitalization of knowledge students.

In this article give information about of lesson from mathematics in elementary school.

### **Kalit so'zlar:**

Matematika, pedagogik texnologiya, integratsiyon ta'lism, fanlararo a'loqadorligi, globallashuv jarayon, axborot ta'lism muhiti, Vatanni sevish, zamonaviy o'qish.

### **Ключевые слова:**

Математика, педагогическая технология, интеграционная связь, процесс глобализации, сфера информационного обучения, любовь к Родине, современное обучение.

### **Keywords:**

Mathematics, pedagogics, technology, integration study education, internation study, process of information, love motherland, the modern of education.

Boshlang'ich sinf matematika o'qitish metodikasida, pedagogik kuzatishlar orqali yangicha usul bilan, qiziqarli tarzda olib boradigan metodlardan foydalanalmoqda. Matematikani o'qitishning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarining asosiy matematik tushunchalarni shakllantirishdir. Matematika darsining o'ziga xos tomoni shundaki, bu o'quv metodni sinchiklab tanlash, darslarni o'quv-tarbiyaviy maqsadida o'qitish metodik va pedagogik bilimlar oraqlari o'rgatish.

Boshlang'ish ta'limgan bilim darajasi tezlashgan bo'lib, unga fanlararo integratsiyon uziksiz ta'lismni yo'laga qo'yishida matematika fanining ahamiyati katta o'rinn tutadi. Integratsiyon atamasi lotincha integration so'zidan olingan bo'lib qo'shilish, birlashish ma'nolarini anglatadi.

Integratsiya esa fanlararo a'loqaga, ya'ni umumiy fanlar, o'quv fanlari, ularning bo'lim va mavzulari bo'yicha olingan bilimlarga tayangan holda o'rganilgan masalaga xos yetakchi g'oyalar hamda hodisalarini izchil, har jihatdan chuqurlashtirilgan serqirra ochilishi rivojidir.

- O'quv jarayonida fanlararo a'lloqadorlikni amalga oshirish ta'lim sifatiga kuchli ta'sir ko'ssatib;
- ta'limni modernizatsiyalash, inovatsiyon o'qitish salohyatini kengaytirish imkonи beradi;
  - boshlangich sinflar matematika darsini taminlashda, uzviy va uzliksiz yordamlashish integratsiyon ta'limning muhim vazifalardan biridir;
  - fanlararo a'lloqani ta'minlashga qaratilgan masalalarni aynan dastur, darslik hamda o'quv qo'llanmalar mazmuniga singdirish pedagog olimlar va tadqiqotchilar zimmasidagi muhim vazifalardandir;
  - ta'lim texnologiyalariga asoslangan fanlararo a'loqa modellarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridandir.

**Integratsiyon dars jarayoni;**

Boshlang'ich sinflar uchun matematika darsida, integratsiyon ta'limni o'rgatish yo'lida birinchi darsni ona Vatanga muhabbat so'zlari bilan boshlab va ularni darsga qiziqtira olishdir. O'qituvchining asosiy quroli – uning nutqi. O'qituvchini dars o'tish jarayoni qiziqarli tarzda olib bo'rishi muhim ahamiyatga ega .

Darsning asosiy maqsadi; mavzuning tushuncha va dalillarini o'qituvchi tomonidan o'quvchiga yetkazish va tushuntirishdan iboratdir. Darsni boshlashdan oldin o'zlashtirgan bilimlar bilan o'zlashtirish lozim bo'lgan bilimlar orasida a'lloqani o'rnatish amalga oshiriladi. Dars davomiyligi; yangi mavzuni yoritish, turli mashqlar yordamida mustahkamlash, darsga yakun yasash, xulosalash, baholash va vazifa berishdan iboratdir. Lekin darsda o'quvchilarning faol yoki sust ishtrok etishi, o'qituvchining darsni qanday o'tishiga va uni rejalashtirishiga bog'liq. An'anaviy dars samaradorligi va darsda o'quvchilarning faoligini oshirish uchun mavzuni mayda bo'laklarga bo'lib o'tish tavsiya etiladi.

Shuningdek, o'quvchilarning bu mavzuni qayta o'zlashtirib borayotganini nazorat qilib borish va bu maqsadda turli xil mashq, topshiriqlarni bajarish maqsadga muvofiq. Darsga o'quvchilar faolligini oshiradigan amaliy mashq, kichik guruhlarda ishslash, ro'lli o'yinlar, musabaqalar, mustaqil ishslash, konferensiya, tadqiqot uslublaridan foydalanish mumkin.

Dars-hayotimizdagagi ajoyib hodisa. Hammamiz qachonlardir maktab partasida o'tirib ilm olganimiz. Qaysidir darslar ketma-ket hech qanday iz, xotira qoldirmay o'tib ketgan, qaysilaridir atrof-muhitni, o'zimizni anglashimizga yordam berib, esimizda haligacha saqlanib qolgan. Kasb tanlashimizga turki bo'lgan darslar ham bo'lgan. Chirolyi nutq, yoqimli muloqot, faoliyatning xilma-xiligi, yuqori jadallik, aniq fikrlaydigan o'qituvchi barcha o'quvchini darsga jalb eta oladi, bundan esa ta'lim oluvchi ham, ta'lim beruvchi ham zavqlanadi. Demak, darsni tashkil etuvchi o'qituvchining inson hayotidagi ahamiyati juda katta.

**Dars qanday bo'lishi kerak?**

Shakl va mazmuniga ko'ra har xil, shuningdek, o'quvchi uchun ahamiyatli, asosiysi tushunarli va qiziqarli bo'lishi kerak. Biz yashab o'tgan dunyo tinimsiz o'zgarib turgan bir pallada dars mashg'ulotlari ham turli-tumanlikni talab etadi. Zamonaviy ta'lim shaxsni kamol toptirish, uni aqlan barkamol etib tarbiyalashda takomillashgan metodlarni qo'llash masalalari ilgari surilmoxda. Darslarda tehnik vositalardan foydalanish an'ana tusiga kirib, endi yanada yangi yo'naliishlarni kashf etish talab etilmoqda. Fanlararo bog'lanish, integrasiyalashgan darslar tashkil etilmoqda.

Globallashuv jarayonida axborot –kommunikatsiya texnologiyalari, ayniqsa internet o'quvchi – yoshlar kundalik hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Tarmoq shiddat bilan rivojlanib, imkoniyatlari tobora kengaymoqda. Har kuni virtual makonda milliondan ziyod axborot resurslarining paydo bo'lishi Uning hajmi daqqaq sayin o'sib borayotganidan dalolat beradi .Bu o'z navbatida yoshlarni turli axborot xurujlaridan himoya qilish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Yani, an'anaviy modeldag'i, o'qitish vositalari" tushunchasidan „ talimiyl muhit" aniqrog'i, „yagona axborot talim muhiti" tushunchasida o'qitishni taqozo etmoqda. Bu esa ochiq ta'lim tizimini vujudga keltirmoqda. O'z navbatida o'qituvchi zimmasidagi ma'suliyat ortib, mutaxasisligidan tashqari, AKTdan foydalana olish , o'quvchilarning ham bu texnologiyalar bilan mustaqil ishslashga erishish vazifasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar ta'lim oluvchilar bilimlarni o'zları qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib , tahlil qilishlariga, hatto xulosalarini ham o'zları keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, bilim olish va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi , o'quv faoliyatiga yo'naltiradi va ular bilan birgalikda boshqaradi.Qaysi (ijtimoiy yoki aniq)fan bo'lishidan qat'iy nazar pedagogik tehnologiya asosida o'tkaziladigan mashg'ulotlar yoshlarni muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrashga , o'z

nuqtai nazarlarni asoslashgan holda imkoniyat yaratadi. Shu sababli ta’lim muassasalarining o‘quv – tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o‘qitish uslublarining o‘rni va ahamiyati beqiyosdir.

O‘qituvchining boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan olib boradigan dars jarayoni o‘ziga xos xususiyatga ega .U o‘quv jarayoni uchun ham barcha tarbiyaviy ishlar uchun ham birdek javobgar. Darsni reja asosida qiziqarli qilib olib borish o‘qituvchidan katta tajriba, tinimsiz izlanish va yetuk bilimni talab etadi. Chunki dars davomida yuz beradigan har qanday holatga tayyor turish,o‘quvchilarning mavzu yuzasidan savollariga hayotiy misollar orqali, qiziqarli o‘yin usullaridan foydalanib javob berish o‘qituvchi mahoratini belgilaydi.

O‘qituvchi o‘quvchilarga har tomonlama ta’lim berish bilan birga, ularni ona Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, Vatanni sevishga, asrab-avaylashga o‘rgatishi, kelajakka ishonch, umid tuyg‘ularini shakllantirib borishi lozimdir. Maktabda o‘quvchilarga darsni qiziqarli, mazmunli,multimedia vositalaridan,yangi pedtexnologiyalaridan foydalanib o‘tkazish oldimizga qo‘ygan maqsadga erishishda muhim ahamiyatga egadir .O‘z tajribamdan kelib chiqib aytadigan bo‘lsam, darsga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida o‘tiladigan mavzu yuzasidan dars rejasini, ya’ni dars texnologiyasini tuzib chiqaman. Buning natijasida matematika darslarida integratsiyon ta’lim berish usulida mashg‘ulot ko‘z oldimda namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, dars davomida o‘quvchilarni guruhlarga bo‘lib yangi pedtexnologiyalardan, multimedia vositalaridan foydalanib,”Aqliy hujum”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Zanjir”, “O‘yin topishmoq”, “Tarmoq”, “Boshqotirma” kabi usullardan mavzuga mosini tanlab, dars texnologiyasini yozib olaman. Masalan, guruhga bo‘lib, o‘yin yoki savol-javob tarzda olib borilgan darsda o‘quvchilar faolligi o’sishini ko‘p bor kuzatganman. Bunda o‘quvchi o‘z guruhi sha’nini himoya qilish uchun o‘qib izlanishga va o‘tilgan mavzuni diqqat bilan tushunib olishga harakat qiladi.

### **Muammoli vaziyat**

Hozirgi kunda o‘quvchilar dunyoqarashini shakllantirishda fanlararo bog’lanish ,ya’ni uzviylikni ta’minlash bugungi kunning eng dolzabr masalasidan biridir. Chunki fanlararo a’loqadorlik ta’minlangan holda, darsni tashkil qila olgan o‘qituvchi o‘quvchilarda o‘zining faniga bo’lgan qiziqishini oshiribgina qolmasdan, mazkur fanni o‘zlashtirishga yordam beradi.

Fanlararo a’loqadorlik tizimli tarzda amalga oshirish natijasida o‘quv-tarbiya jarayonining a’loqadorligi sezilarli darajada ortadi. Shu bilan bir qatorda aytish kerakki matematikaning ko’nikmalari shakillanishiga, unga oid bilim va qiziqishlarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridan o‘tilgan darslarni tekshirib olishni ola bilish lozim.

### **Muammoni qo‘yishdan maqsad**

Ma’lumki boshlang‘ich sinf matematika darsini qiziqarli olib borishni va fanlarni bir-birlariga bog’lagan holda darslarni o’tish. Matematik mantiq elementlarni ularga matematika darsda o‘qituvchi o‘quvchilarning qiziqishiga undashi va ularda o‘zlashtirish muammolarini yangicha tarzda sharoitdan kelib chiqqan holda olib borish va hayotiy mavzulariga bog’lab o’tish pozitsiyasini amalga oshirib aniqlab olish.

O‘quvchilarning matematika faniga ehtiyojini yuqoriligini o‘rganish orqali, darslarda mulohazalarni va berilgan masalalardan matematik mantiq elementlarini ajratish. U yoki bu kasbning amaliy faoliyati bilan matematikaning integratsiyasini aniqlash. Tatbiqiyl matematik masalalarni yechishni o‘rganishda matematik mantiq amallari va mulohozalarning o‘rnini anglash. Kuzatish, maqsadni ko‘zlagan reja asosiga yondashib kengroq o‘qitish metodikasining va pedagogik suhbat metodidan, mezonlar orqali foydalana olish.

Boshlangich sinf matematikasini o‘qitish, o‘qituvchi boshchiligida amalga oshirilib o‘quvchilarning umumiyy rivojlanishiga yordam beradi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar.**

1. Zokirova F.M, Xaytullayeva N.S. Informatikani o‘qitishda o‘yinli texnologiyalardan foydalanish.
2. To‘xtaboyev M., To‘xtaboyev A., Murakkabsan, mukammalsan, go‘zalsan matematika!
3. Usmonov M.S. Matematik statistik uslublardan foydalanib interfaol elektron o‘quv kursining samaradorlik darajasini aniqlash.

**July 9<sup>th</sup>, 2022**

**conferencezone.org**

4. Umumta'lim fanlari metodikasi jurnali. A.Islomov. X.Abdurahmonov. "Yangi fan yangiliklarga boy ..." M.Mirzaahmedov. 2013-yil.
5. Bikbayev N. U va boshq. Matematika o'qitish metodikasi; O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma – T.; O'qituvchi, 2016.
6. N. N. Alimov, J.R. Turmatov, [Pedagogik texnologiyalar], o'quv-uslubiy qo'llanma. 2017
7. R. Eshmuhamedov, A. Abduqodirov, A. Pardayev. Ta'limda innavatsiyon texnologiyalar. O'quv qo'llanma T. "O'zbekiston" 2018.
8. M.E.Jumayev, Z.G.Tadjiyeva, Boshlangich sinflarda matematika o'qitish metodikasi.2007